

XOJI AKBAR RAHMONQULOVNING ILMIY MEROSI VA UNING ZAMONAVIY HUQUQSHUNOSLIKKA TA’SIRI

Abduqodirov Rahmiddin Hazratqul o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘zbekiston huquqshunosligining yirik namoyandasi, akademik Xoji Akbar Rahmonqulovning ilmiy faoliyatiga bag‘ishlanadi. Ustozning 60 dan ortiq monografiya va darsliklari, 300 dan ortiq ilmiy maqolalari, 80 ga yaqin xalqaro va respublika anjumanlaridagi ma‘ruzalari mavjud. Ustozning bevosita ilmiy rahbarligida 20 dan ortiq fan doktorlik va 60 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan. Maqolada akademikning hayoti, ilmiy faoliyati, jamiyatdagi o‘rni va xotirasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xoji Akbar Rahmonqulov, huquqshunoslik, akademik, faoliyat, ustoz, shogird, huquq, fuqorolik huquqi, xalqaro xususiy huquq*

Ustoz — bu nafaqat bilim beruvchi, balki inson qalbini tarbiyalovchi, unga hayot yo‘lini ko‘rsatuvchi muhim shaxsdir. O‘zbek xalq maqollarida ustozning o‘rni va ahamiyati yuksak qadrlanadi: “Ustoz — otangdek ulug‘”, “Ustozning bir kuni — shogirdning butun umriga teng” kabi iboralar uning ta’lim-tarbiyadagi beqiyos rolini aks ettiradi.

Ustozlarimizning mehnati va fidoyiligi tufayli bugungi kunda biz ilimli va tarbiyali insonlar bo‘lib voyaga yetmoqdamiz. Ularning sabog‘i, nasihati va mehr-muhabbati bizni hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga undaydi. Shu bilan birga stoz haqida fikr yuritganimizda ko‘z o‘ngimizda yuqori fazilatlar egasi, ziyoli, bilimi va mehri go‘yoqi oqar chashmadek to‘lib-toshgan inson va buyuk zakovat egasi yorqin gavdalanadi. Ustoz akademik X. Rahmonqulovning yorqin va ibratli hayoti va faoliyati davomida ilmga sadoqat, kuchli va noyob ijodiy shijoat, izchil harakat qilishda maqsad sari dadil intiladigan, yosh avlodni tarbiyalash, ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuqori tajribalari, ilm yo‘lida bergan dono nasihatlar va doimo qo‘llab-quvvatlashlari ko‘plab kishilar uchun yuqori ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shu boisdan, ustozlarni e‘zozlash, ularning mehnatini qadrlash har birimizning burchimizdir.

X.Rahmonqulov 1925-yil 9-fevralda Cimkent viloyati Sayram tumanida tavvalud topgan va u 88 yil ma’zmunli umr ko’rgan. U manashu 88 yil umri davomida 2-jahon urishida qatnashgan va urish tugagandan so’ng hozirgi Toshkent davlat yuridik universitetiga o’qishga topshirib u yerni 1950-yilda tamomlagan. 1950-51, 1956-57-yillarda O‘zbekiston Adliya vazirligi boshqarmasida katta taftishchisi, 1957-80 1985-91 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutida aspirant, kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, sho’ba, bo’lim mudiri, 1990-yilda O‘zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobini olgan, 1991-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida mas’ul xodim, 1994-yil Jasorat medali bilan mukofatlangan va O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasida professor, 1999-yildan Toshkent yuridik institutida kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritgan. Yuqoridagilardan tashqari u o’z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-qismiga umumiy tavsif va sharxlar(Toshkent, 1997) Oldisotdi shartnomasi (Toshkent, 2000) Xususiy mulk va uning daxlsizligi(Toshkent, 2000.) Xalqaro xususiy huquq (darslik; hammualliflikda)(Toshkent, 2002.) kabi kitoblar yozgan va nashr qilgan.

Yuqorilardagidan tashqari u o’z faoliyati davomida ko’plab shogirdlarining sevimli ustoz bo’lib ulgurgan desam also yangilishmagan bo’laman. Buni Toshkent davlat Yuridik universiteti yuridik fanlar doktori SH.Ruzinazorov ustoz haqida bildirgan illiq fikrlarida ko’rishimiz mumkin. U ustoz haqida shunday degan: Har gal u kishining huzurlariga borganimda, ustoz o’tmishda fiqh ilmi va unga berilgan e’tibor, fuqarolik, tadbirkorlik, oila va xalqaro xususiy huquq fanining dolzarb muammolari hamda ularni tadqiq etish orqali hal etish istiqbollari haqida so’z ochardilar. Ilmiy-tadqiqot ishlarida e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan jihatlarni zukkolik bilan tushuntirib berardilar.

Ayniqsa, bayramlarda, tug’ilgan kunlarida do’stlari, shogirdlari, yaqinlari, hamkasblari ustozning fikr-mulohazalarini diqqat-e’tibor va maroqli tinglar edilar. Hazil-mutoyibalar bilan o’tgan bunday tadbirlarda barcha davradagi suhbatdoshlariga ko’tarinki kayfiyat va zavq bag’ishlaganlari hanuz yodimda.

Ustozning uyiga tashrifimizda u kishining doimo ijod bilan band bo’lganlarini, ishlariga naqadar mas’uliyat bilan yondashganlarini eslayman. Ustoz bilan bo’lgan har bir suhbat va jamoaviy muloqotlar nafaqat ruhiyatimizni ko’tarar, balki ijodda va

ish faoliyatimizda doimo faol bo‘lishga undar, oliyjanob insoniy fazilatlar egasi bo‘lishga chorlar edi.

Ustoz mening shaxsiy hayotimda juda katta o‘rin egallaganlarini aytsam, bu — chin so‘z bo‘ladi. Shu bois, Alloh rahmat qilgan bo‘lsin, ustozimga bir umr minnatdorman. Ustoz X. Rahmonqulov haqida ezgu so‘zlar aytganlar va insoniy fazilatlariga bag‘ishlangan bitiklar yozganlar ham ko‘p. Bu haqda jo‘shqin xotiralarga ega insonlar va shogirdlar nigohida bildiriladigan fikrlar esa undan ham bisyor.

Ayniqsa,.Ustoz yaratgan ilmiy maktabning bardavomligini ta‘minlash maqsadida, u kishining yuridik fanga qo‘shgan salmoqli hissalar kelgusida keng yuridik jamoatchilikka yetib borsa, ustoz asos solgan ilmiy maktab faoliyati yanada yaqqol ko‘zga tashlanib boraveradi.Ustozning jamoli — shogirdlar kamolida, ularning yozma manbalarda ifoda etilayotgan ilmiy ishlari orqali yanada sayqal topib, asrlar o‘tsa-da, ibrat va o‘rnak manbai sifatida ko‘zgu misolida aks etib borishiga ishonchimiz komil. Aynan shu ma’noda, bu ham chin so‘zdir.

X. Rahmonqulov meni nafaqat ilm ummoniga chorlagan ustoz, balki shu ilm bulog‘idan bahramand bo‘lishim, hurmat-e‘tibor va qadrlanishimga ham sababchi bo‘lgan zotdir. Atoqli olimning boy svilistik ilmiy merosini o‘rganish va uning noyob tafakkur silsilasidan bahramand bo‘lish, tom ma’noda o‘zligimizni anglashda va uni yangi avlodlar ongiga yetkazishda biz uchun farz ham, qarz ham desam, bu aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.Bugungi hayotimizning mazmun-mohiyati ham aynan shunday qadriyatlar va shogirdlar sulolasining baxtli kelajagiga bevosita bog‘liqligini aslo unutmasligimiz kerak.

Haqiqatan ham, X. Rahmonqulov — shogirdlari ardog‘iga munosib bo‘lgan ustoz, ilm-ma‘rifatda shodmon, hayotda esa e‘zoz va hurmat topgan buyuk qalb va fazilat egasi edi.Ustoz X. Rahmonqulov ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va boshqa nufuzli tadbirlarda o‘ziga rom etgan holda ravon va sermazmun nutqlar so‘zlar edilar. Ayniqsa, ilmiy va amaliy isbot-dalillarga tayangan holda o‘z ilmiy xulosa va takliflarini ishonchli asoslarda bayon qilardilar.Ustoz tegishli Oliy sudlarning ilmiy-maslahat kengashlari a‘zosi sifatida sud amaliyotini muntazam kuzatib borar edilar. U kishining haqiqiy va tom ma‘nodagi qudratli olimlik salohiyati, fanning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashda, shogirdlarga mavzular belgilashda, ayniqsa, tadqiqot mavzularini fanning fundamental asoslariga tayangan holda ifoda etish qobiliyatiga

ega edilar. Shuningdek, davlat va jamiyatning ob'yektiv rivojlanish qonuniyatlariga mos ravishda huquqiy voqea va hodisalarning tarixiy taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish kabi noyob ijodiy iste'dod egasi edilar. Ustozning yana bir muhim olimlik fazilati — egallagan fundamental va metodologik bilimlarini inson, jamiyat va mustaqil davlat taraqqiyoti yo'lida, hamda ixtisoslik yo'nalishlarining dolzarb mavzularini tadqiqot ob'ekti sifatida asosli belgilash va tadqiq etishda qimmatli ilmiy-amaliy maslahatlar bera olganidir. Shu bois, ustoz va ularning shogirdlarining tadqiqot ishlarining aksariyati milliy fuqarolik qonunchiligini rivojlantirish va uning normalarini amaliyotda qo'llashda yorqin namoyon bo'ldi deya gapini tugatadi ustoz haqida illiq fikrlar bildirib.

Ustozning yana bir shogirdi ustoz haqida xotiralarni yodga olib shunday deydi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, Respublika xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Xoji-Akbar Rahmonqulovichni men 1971 yildan, Toshkent Davlat Universiteti yuridik fakulteti Davlat va huquq tarixi kafedrasida assistent bo'lib ishlab yurgan paytlarimdanoq tanir edim. Garchi u kishi fuqarolik va xo'jalik huquqi sohasida yuksak darajadagi olim, yetuk pedagog bo'lsalar-da, men esa huquq tarixi sohasini tanlagan bo'lsam ham, uni o'zinga ustoz deb bilganman. Ustozim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Xolida Samatovna singari, Xoji-Akbar Rahmonqulovich ham men uchun ustoz, maslahatgo'y va hayotiy na'munadir. U kishini har doim vazmin, ilmga chanqoq, suhbatda xushchaqchaq va mehnatsevar inson sifatida taniganman. Ilmiy va pedagogik faoliyatlari bilan bir qatorda, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etganlar: Samarqand Davlat Universiteti Ilmiy kengashi a'zosi, "SamDU olimlari ilmiy tadqiqotlari Axborotnomasi" tahrir hay'ati a'zosi sifatida, hamda ko'pgina yosh olimlarimizning nomzodlik ishlariga ilmiy rahbar sifatida samarali mehnat qilganlar.

Ustozning Samarqandda dars bergan va hozirda ham fuqarolik huquqi sohasining taniqli vakillari sanaladigan T.R. Bekmuratov, E.M. Musaev, I.Yu. Kan kabi shogirdlari bor. Ularning ilmiy va pedagogik yetishuvlarida ham Xoji-Akbar Rahmonqulovichning o'rni beqiyosdir.

Mening ham oliy o'quv yurtida shakllanishim, fan doktori darajasiga yetishimda ustozimning bergan maslahatlari, ilhom beruvchi so'zlari katta ta'sir qilgan. Bir kuni Xoji-Akbar Rahmonqulovich, ustozimiz G'ulom Ahmedovich Ahmedov va men ilmiy masala yuzasidan fikr almashib turganimizda Xoji-Akbar Rahmonqulovich

shunday degan edilar: “Nomzodlik ishini o‘zi yozib, himoya qila olgan insondan albatta fan doktori chiqadi. Siz harakat qilsangiz, sizdan fan doktori chiqadi.” Bu so‘zlar men uchun ilhom manbai bo‘lib, yanada ilmiy izlanishlarga chuqur sho‘ng‘ishimga turtki bo‘lgan. U kishi Samarqanddan Toshkentga ko‘chib o‘tganlaridan so‘ng ham uchrashib, suhbatlashib turardik. Har bir uchrashuv – bilim va hayotiy tajriba maktabi bo‘lgan. Bugun u zotni ezgu so‘zlar bilan yod etib, ustozga bo‘lgan minnatdorlik tuyg‘ularimni yana bir bor izhor etaman deya SAMDU yuridik fanlar doktori Ziyodulla Muqimov o‘z ustozini haqida illiq fikrlar bildirgan.

Yuqoridagi kabi ustozning 88 yillik umri davomida uning faoliyatiga ijobiy baho beradigan shogirdlari juda ham ko‘p. Bu esa o‘z o‘rnida X. Rohmonqulovning 88 yillik umri behuda sarflanmaganligi va o‘zidan keyin jamiyatga katta hissa qo‘shadigan shogirdlar qoldirganidan dalolat beradi desak menimcha adashmagan bo‘lsak kerak.

Xullas, Olimlar millat chirog‘i bo‘lgani bois, ularning hayoti va ijodini qancha o‘rganmasak, qancha targ‘ib qilmasak, shuncha kam. Zohiriyatni o‘ylasa, bu hayotning oddiy haqiqatlari ham ana shundadir. Biz yashayotgan bu olam ana shunday buyuk alloma va fuzolalar bilan barqarordir. Ustoz X. Rahmonqulovning hayot va faoliyat qo‘rg‘onidagi yuqori insoniy fazilatlari, donishmandlarga xos salobati va noyob sivilistik tafakkur mahsuli sifatida bizga qoldirilgan ilmiy-ma’naviy merosi hali qancha avlodlar uchun murodbakhsh bilim va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi kerakligiga ishonchim komil. Ustozimizning ilmiy merosi, nafaqat yuridik fanlarda, balki barcha sohalarda keng tarqalgan va chuqur iz qoldirgan bo‘lib, kelajak avlodlar uchun unutilmas xazina sifatida qoladi. Ularning ijodi, faqatgina ilmiy yutuqlar bilan emas, balki insoniyatga bo‘lgan yuksak ehtirom va sevgi bilan ham bizga meros bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- “Akademik Xodji-Akbar Rahmonqulov o`qishlari” mavzusiga bag’ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami(2025)

- https://uza.uz/oz/posts/tugilgan-kun-akademik-hoji-akbar-rahmonqulov-1925-2013_516592

- <https://islas.academy.uz/en/news/akademik-hoji-akbar-rahmonqulov-oqishlari-mavzusidagi-respublika-ilmiy-konferensiyasi-otkazildi-4>

- https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/hojiakbar_rahmonkulov

- <https://zarnews.uz/uz/post/ozbekiston-huquqshunoslarining-sevimli-ustozi-hojiakbar-rahmonqulovni-xotirlab>

- https://uz.wikipedia.org/wiki/Hojiakbar_Rahmonqulov